

MURABAHA - ISLOMIY MOLIYA SHARTNOMASI TURI SIFATIDA

Otabek Mutalov

o.mutalov@auni.uz

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Angren universiteti dotsenti v.b.

Gulbahor Nishanova

g.nishanova@auni.uz

Angren universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada islomiy moliya tizimining muhim vositalaridan biri — Murabaha shartnomasi haqida so'z yuritiladi. Murabaha bu savdo asosida tuziladigan shartnoma bo'lib, unda bank yoki moliyaviy institut mijoz istagidagi tovarni xarid qilib, unga o'z xarajatlari ustiga kelishilgan foyda qo'shgan holda sotadi. Maqolada ushbu moliyalashtirish shaklining ish tartibi, ribodan farqi, amaliy qo'llanish holatlari va afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, misollar orqali murabahaning qanday ishlashi yoritilib, uning shariatga muvofiqligi asoslanadi. Mazkur maqola islomiy moliyaga qiziqqanlar, iqtisodchi talabalar hamda amaliyotchi mutaxassislar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Murabaha, Islomiy moliya, foizsiz moliyalashtirish, shariatga muvofiq moliya, savdo shartnomasi, ribo, islomiy bank, halol daromad, tovar moliyalashtirish, muddatli to'lov, moliyaviy vosita.

KIRISH

Zamonaviy moliya tizimining jadal rivojlanishi davrida aholi va biznes subyektlarining halol va adolatli moliyalashtirishga boʻlgan ehtiyoji ortib bormoqda. Ayniqsa, musulmon aholi koʻpchilikni tashkil qiladigan jamiyatlarda moliyaviy munosabatlarning islomiy shariatga muvofiq yuritilishi dolzarb masalaga aylangan. Bu esa, foiz (ribo) elementidan xoli, adolat va shaffoflikka asoslangan islomiy moliya vositalarining rivojlanishiga turtki boʻlmoqda. Shunday vositalardan eng keng tarqalgani – bu Murabaha shartnomasidir.

Murabaha – bu real aktivga asoslangan tijorat bitimi boʻlib, unda sotuvchi (odatda, bank) xaridorga tovarni oʻz xarajati ustiga kelishilgan foyda bilan sotadi. Ushbu modelda bank mijoz nomidan tovarni sotib oladi, unga egalik qiladi, riskni oʻz zimmasiga oladi va keyinchalik uni mijozga sotadi. Shartnomaning barcha jihatlari — xarajatlar, ustama foyda miqdori, toʻlov muddati — oldindan aniq belgilanadi, bu esa uni shaffof va ishonchli moliyaviy muomala turiga aylantiradi.

Murabaha shartnomasi oʻzining shariatga muvofiqligi, ribo (foiz)dan holiligi, bank-mijoz oʻrtasidagi ishonch asosida qurilishi, hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Bu moliyaviy mexanizm nafaqat bank sektori uchun, balki tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish, isteʼmol kreditlari, uy-joy olish, hatto interbank operatsiyalar kabi keng koʻlamdagi sohalarida muvaffaqiyatli qoʻllanilmoqda. Shu bois, ushbu maqolada Murabaha shartnomasining mohiyati, uning fiqhiy va iqtisodiy asoslari, amaliy bosqichlari, zamonaviy moliya tizimidagi rol va dolzarbligi, shuningdek, uni qoʻllashda yuzaga keladigan muammolar va tanqidiy qarashlar keng va chuqur tahlil qilinadi. Murabaha shartnomasi islomiy moliyaning eng keng qoʻllaniladigan vositalaridan biri hisoblanadi. Koʻplab olimlar bu moliyaviy mexanizmning nazariy asoslari, amaliy muammolari va shariatga muvofiqligi yuzasidan ilmiy fikrlar bildirganlar. Sheikh Taqi Usmani oʻzining "An Introduction to Islamic Finance" (1998) asarida murabaha shartnomasini banklar orqali qoʻllanilishi mumkin boʻlgan "ikkinchi darajali" savdo shakli sifatida tasvirlaydi. Biroq u, ushbu vosita faqat zarurat paytida va qatʼiy shartlarga rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerakligini taʼkidlaydi. Imran Ahsan Khan Nyazee oʻzining "Murabaha and the Credit Sale" (2009) asarida zamonaviy murabaha bank amaliyotida fiqhiy jihatdan murakkab va baʼzan noqonuniy shakllarga aylanganini batafsil yoritadi. U shartnoma "qogʻozda

tovar almashinuvi” asosida emas, balki real mulk transferiga asoslangan bo’lishi kerakligini ta’kidlaydi.

Zamonaviy tahlillar va statistika asosida yondashuvchilardan biri Sami Al-Suwailem, Muhammad Ziaur Rahman va boshqa olimlar tomonidan chop etilgan maqolalarda murabaha shartnomasining foizli kreditdan farqlari: foyda asosida ishlashi va banklar tomonidan noto’g’ri qo’llanilishi (masalan, tovarlarni ko’rmasdan sotish, foydani Libor⁸ asosida belgilash) keng yoritilgan.

AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) tomonidan berilgan ”Murabaha Standartlari “ ushbu shartnomaning shariatga to’g’ri keladigan shaklini belgilab bergan. Ushbu standartlar banklar tomonidan qanday buzilishi haqida ham ko’plab tadqiqotlar mavjud. Islomiy moliyaga oid huquqiy-huquqshunoslik manbalari, fiqhiy fatvolar va AAOIFI standartlari asosida murabaha shartnomasining mohiyati va u bilan bog’liq huquqiy holatlar tahlil qilingan. Murabaha shartnomasi va odatdagi foizli kreditlar o’rtasidagi farq va o’xshashliklar taqqoslab ko’rib chiqilgan. Shuningdek, turli mamlakatlar (Saudiya Arabistoni, Pokiston, Malayziya)da qo’llanish amaliyoti o’zaro solishtirilgan. AAOIFI, IsDB (Islamic Development Bank ya’ni Islom Taraqqiyot Banki) va mahalliy islomiy banklar tomonidan e’lon qilingan hujjatlar, tadqiqotlar va statistik ma’lumotlar tahlil qilingan.

AAOIFI murabaha standartlari:

Shariat Standarti №8 – “Murabaha to the Purchase Orderer” Ushbu fiqhiy standart murabaha operatsiyalarining fiqhiy mosligini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan. Belgilangan uch bosqich: Promise Stage – mijozning bankdan tovarni sotib olishga tayyorligini bildirishi; Acquisition Stage – bank aktivni sotib olib, egalik va riskni o’z zimmasiga oladi; Execution Stage – xarajat + ustama foyda bilan sotuv amalga oshiriladi. Standart hamda AAOIFI talablari bo’yicha banklar: aktivlarni mijoz bank agenti sifatida sotib olishi mumkin, lekin bu jarayonda hech qanday “qaytarib sotib olish” (bai’ al-inah) bo’lmasligi kerak

⁸1. Londondagi jahon ssuda kapitallari bozorida yetakchi erkin almashinadigan valyutalar - AQSh dollari, Germaniya markasi, Yaponiya ienasi, Buyuk Britaniya funt sterlingi kabi valyutalardagi depozitlarga to’lanadigan foiz stavkasidir.

Buxgalteriya FAS №28 – “Murabaha va boshqa deferred payment sales” Bu buxgalteriya standarti murabaha tranzaksiyalarini qanday yaxlit, ochiq va aniq hisoblash kerakligini ko‘rsatadi. Ilgari bo‘lgan FAS 2 va FAS 20 standartlarini yangilar ekan; Murabaha shartnomasini qanday tan olish, o‘lchash, hisobotda aks ettirish (daromadni tan olish vaqtinchalik yoki bo‘lsa, aktivda aks ettirish) kabi qoidalarni belgilaydi. Shariat Standarti №59 – “Sale of Debt” (biayni qarzni sotish) Ushbu yangi standart murabaha shartnomasining (rollovers)⁹ “mugat”¹⁰– ya’ni muddatni uzaytirish amaliyotini foizga o‘xshashi bois ruxsat bermaydi. Rollover har bir davrda alohida murabaha shartnomasi sifatida tuzilishi kerak. Shunday qilib, bu “qiyosiy foiz”ni oldini oladi .

Murabaha — real savdo shartnomasi bo‘lishi, bank aktivga egalik qilishi va mavjud riskni o‘zida saqlashi talab etiladi . AAOIFI aktivni bank foydasiga emas, balki xarajat + ustama asosida sotilgan aktiv sifatida aks ettirishni talab qiladi. Foyda va xarajatlarga doir barcha ma’lumotlar aniq ochib berilishi kerak — bank va mijoz rasmiy ravishda kelishilgan miqdorni bilishi shart hisoblanadi.

⁹ Moliyaviy bozorda, shartnoma muddati uzaytirilganda sodir bo‘ladigan holatdir

¹⁰ Rollovers (<https://aaoifi.com/?lang=en>)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmani, M. Taqi. *An Introduction to Islamic Finance*. Idaratul Ma'arif, 1998
2. Nyazee, I. A. K. *Murabaha and the Credit Sale*, 2009.
3. Siddiqi, M.N. *Issues in Islamic Banking: Selected Papers*. Leicester: The Islamic Foundation, 1983.
4. Жыпаева, А. Б. (2020). PRIOR RIGHTS IN TRADEMARK IN UZBEKISTAN, CHINA AND GERMANY COMPARATIVE STUDY.
5. Chapra, M. Umer. *Towards a Just Monetary System*. The Islamic Foundation, 1985.
6. Mutalov, O. B. (2022). Project civil code of the republic of Uzbekistan: Token, blockchain and smart contracts. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(1), 344-348.
7. Ziaur Rahman, M. (2020). *Risk Transfer in Murabaha: A Shariah Analysis*. *International Journal of Islamic Economics and Finance Studies*.
8. Al-Suwailem, S. (2006). *Hedging in Islamic Finance*. Islamic Development Bank.
9. Bhatti, M. et al. (2024). *Murabaha Practices in AAOIFI vs Practice in Pakistan*. Springer.
10. https://www.investopedia.com/terms/m/murabaha.asp?utm_source
11. https://alqalam.org.uk/wp-content/uploads/2017/07/Murabaha.pdf?utm_source
12. https://www.scribd.com/doc/22923378/Murabahah-and-the-Credit-Sale?utm_source
13. <https://aaoifi.com/?lang=en>